

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA DINIY NUTQ MASALALARI VA ULARNI  
OLIMLAR TOMONIDAN O‘RGANILGANLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6345097>

**Xudoynazarova M.I.**

(TerDU, Lingvistika: o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi magistranti),

**Amonturdiyeva Sh.R.**

(TerDU, f.f.n. (PhD), ilmiy rahbar)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbek tilshunosligida diniy nutq masalalari va ularni tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilganligi haqida asosli ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *diniy nutq, ilmiy-publitsistik, ekzotik leksika, funksional-stilistik, lingvomadaniy hususiyatlar, diniy-mifologik, leksik-semantik, struktural-funksional, fonetik, leksik, grammatik,*

Ijtimoiy-diniy, xususan, islomiy-diniy masalalar bir qator o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, tadqiq etilgan ishlar juda kam sonni tashkil qilsa-da, zamonaviy o‘zbek tilshunosligining ko‘zga ko‘ringan yutug‘i hisoblanadi.

Professor M.E.Umarxo‘jayevning diniy uslub to‘g‘risidagi bir qator ilmiy va ilmiy-publitsistik maqolalari va diniy terminlarning qisqacha lug‘ati, shuningdek, diniy matnlarda ekzotik leksikaning tahliliga bag‘ishlangan professor N.M.Ulukovning dissertatsiya ishi, Sh.R.Amonturdiyevaning “O‘zbek diniy matnining funksional-stilistik tadqiqi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi, Sh.M.Sultonovanning “Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy hususiyatlari”ni tadqiq qilgan dissertatsiya ishi, M.R.Galiyevaning “Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi” mavzusida yoqlangan doktorlik dissertatsiyasi bu borada ko‘zga ko‘ringan ishlardandir.

Har qanday tilning o‘ziga xos lingvistik va ekstralingvistik hususiyatlari o‘sha til iste‘molida mavjud bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalarida, ayniksa, leksikasida yorqin namoyon bo‘ladi. Har bir xalqning o‘z makoni va zamoni mavjudligi, o‘zining muayyan olamga egaligi o‘sha tillarda o‘ziga xos til birliklari shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Professor M.E.Umarxo‘jaev “O‘zbek tilining diniy atamaları lug‘ati qachon tuziladi?” degan sarlavxa ostida yozgan maqolasi keng jamoatchilik ommasiga havola qilindi. Maqolada tilimizning ushbu noyob qatlamining fonetik-orfografik (imloviy) ko‘rinishi, leksik-semantik, struktural-funksional hususiyatlari chuqur o‘rganilmagani, tilshunos va ilohiyotchi olimlar hamda mutaxassislar nazaridan ko‘p yillar chetda qolgani oqibatida chet tillardan o‘zlashtirilgan diniy atamalarning leksik ma‘nolarini izohlash va tafsir qilishda sub‘ektivlik, o‘zga tillardan ba‘zi tushuncha va atamalarni o‘zlashtirishda asosiy erkinlik, ba‘zi hollarda o‘ta arabchallashtirish yoki forschallashtirish holatlari ko‘zga tashlanayotganligini bayon qildi.

O‘zbek tilining qadimdan to‘plangan, o‘ziga xos shakllangan mahsus diniy leksik-



semantik qatlami mavjudligi, o‘zbek tilshunosligida ushbu noyob leksik qatlamning ilmiy hamda amaliy maqsadda o‘rganilishiga yetarlicha e‘tibor berilmaganligi bu hususida mahsus ilmiy-tarixiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etarkan, shu o‘rinda M.E.Umarxo‘jayev o‘zbek tilini quyidagi kabi davrlarga bo‘lib o‘rganishni taklif qiladi: sobiq sho‘rolar davriga qadar bo‘lgan davr; sho‘rolar davri; mustaqillik davri.

Muallif lingvistikada e‘tirof etilgan funktsional uslublar sirasiga jahonning barcha tillarida, hususan, o‘zbek tilida kam fonetik, leksik, grammatik, stilistik va boshqa qator hususiyatlarga ega bo‘lgan diniy funktsional uslub mavjudligini va diniy atamalar lug‘ati shu uslubning ko‘rsatkichi ekanini ta‘kidlaydi [1].

“O‘zbek tilining diniy atamaları lug‘ati” tilshunos diniy leksikani qator mavzuiy guruhlariga ajratadi: (o‘zbek tilida asosiy diniy tushunchalarni ifodalovchi atamalar, diniy, axloqiy-odobiy tushunchalar, Alloh taoloning go‘zal 99 ismlari, farishtalar nomlari, Payg‘ambarlar nomlari, Muhammad (s.a.v.) oila a‘zolari va saqobalari, diniy atamalarni ifodalovchi atamalar, ibodatga oid va ularning vaqtlarini ifodalovchi atamalar, diniy unvon va darajani ifodalovchi atamalar, Qur‘oni Karimda tilga olingan ba‘zi bir shaxslarning nomlari, Vatanimiz zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar, ilohiyotchilar va ular bilan bog‘lik bo‘lgan joy nomlari, Muqaddas shaharlar va masjidlar nomlari, Haj ibodati bilan bog‘lik bo‘lgan tushuncha va atamalar, diniy kiyimlar, turli diniy buyumlar nomlari, diniy atamalar) [1].

Taniqli tilshunos olim N.M.Ulukovning “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi” deb nomlangan nomzodlik ishida o‘zbekcha diniy matn ekzotizmlarining mavzuiy guruhlari va ma‘no hususiyatlariga ko‘ra ekzotik so‘zlar, ekzotik atoqli otlar, ekzotik frazeologiya guruhlari bo‘lib o‘rganadi. O‘zbekcha diniy matn ekzotizmlarining turlari, semantik jihatdan o‘ziga xosliklari va funktsional vazifalarining mukammal tadqiqini olib boradi, muallifning ta‘kidlashicha, “shu tarzda mavzuiy guruhlariga bo‘linganda ekzotik leksika xakidagi tushunchalar, ularning ma‘nosi, leksik-semantik hususiyatlari, funktsional vazifalari xamda boshka lingvistik hususiyatlari” yaqqolrok ko‘rinadi [2].

Sh.R.Amonturdiyevaning “O‘zbek diniy matnining funktsional-stilistik tadqiqi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishida o‘zbekcha diniy matnlarning til xususiyatlarini tahlil qilish va shu orqali uning o‘ziga xos jihatlari, tanlanish imkoniyatlari, uslubiy va o‘zbek tili funktsional uslublari tizimida tutgan o‘rnini ochib berish bilan barga quyidagi fazifalarni ham keng ma‘noda ochib bergan: o‘zbek tili stilistikasi, xususan, funktsional stilistika masalalariga to‘xtalib o‘tish; o‘zbekcha diniy matnlarni funktsional-stilistik yo‘nalishda o‘rganish masalasini o‘rtaga qo‘yish va ushbu matnlar uslubiga vazifaviy-uslubiy jihatdan munosabat bildirish; diniy matnlarda til birliklari namoyon bo‘lishining lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini aniqlash; o‘zbek tili funktsional uslublari tizimida diniy uslubning mavjudligi haqida muayyan xulosalarga kelish [3].

Sh.R.Amonturdiyevani doktorlik dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi - diniy matnlarni vazifaviy-uslubiy jihatdan tahlil qilish orqali uning o‘zbek tili funktsional-stilistik tizimidagi o‘rni ochib berilgan; diniy matnlarning leksik-semantik, semantik-uslubiy, grammatik xususiyatlari aniqlanib, o‘zbek tili funktsional uslublari xoslanishi



asoslangan; diniy matnlarda til birliklari namoyon bo'lishining lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari faktik materiallar bilan dalillangan; diniy matnlarning fonetik xususiyatlari eksperimental tadqiq qilinib, uning adabiy til me'yorlariga amal qilinish darajasi aniqlangan va yozma diniy matnlarning imloviy xususiyatlariga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lgan [4].

Sh.M.Sultonovaning “Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy hususiyatlari” deb nomlangan dissertatsion tadqiqot ishida esa, muallif muqaddas matnlardagi zamon kategoriyasining lingvomadaniy tahlili asoslarini ko'rsatib beradi. Muqaddas kitoblarda zamon ta'limoti to'g'risidagi tilshunoslikdagi qarashlarni yoritib, zamon tushunchasini mifologik va diniy tasavvurda ochib beradi [3].

Dinning vakili bo'lgan xalqning tafakkurida va madaniy turmushida zamon kategoriyasining namoyon bo'lishi haqida fikr yuritadi. Tahlil materiali sifatida musulmon va xristian diniga mansub xalq va ularga nozil qilingan muqaddas matnlar va shu matnlardagi zamon kategoriyasining din vakillari ongida va madaniyatida ko'rinishini izohlaydi. Ilmiy tadqiqot ishida til va madaniyat uyg'unligida zamonning muqaddaslik hususiyatiga urg'u beradi.

Sh.M.Sultonova zamon kategoriyasi va uning o'ziga hosliklarining verballashuvdagi umumiy qonuniyatlar ushbu kategoriyaning ham universalligi bilan birga uning mazmuni, barcha sohada invariantligi hakida muhokama yuritib, bu hodisa zamon kategoriyasini yagona metodologik asosda tahlil qilinishni taqozo etishini aytib o'tadi [4].

Musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'oni karim va xristianlarning muqaddas kitobi Injilda temporal so'zlarning qo'llanish doirasini aniqlab, leksik-semantik tahlil asosida ularning lingvomadaniy hususiyatlarini ochib beradi, temporal so'zlarning semantik tarkibida izohli lug'atlarda aks ettirilmagan muqaddaslik ma'no komponentlarini ham ko'rsatadi. Shuningdek, muqaddas matnlardagi temporallikning maqol, matal va turg'un iboralarda ifodalanishida lingvomadaniy hususiyatlar aks etishini ta'kidlaydi [4].

M.R.Galiyevaning “Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi” mavzusida yoqlangan doktorlik dissertatsiyasida til va din o'rtasidagi munosabatni tilning barcha sathlarida o'rganuvchi tilshunoslikning zamonaviy yunalishi (til va madaniyat, til va tafakkur, til va jamiyat munosabatlari masalalari bilan shug'ullanuvchi) teolingvistikaga ajratish zarur degan g'oyani ilgari suradi, “til - madaniyat - din» munosabati muammosiga bag'ishlangan majmuaviy tadqiqot” olib boradi [5].

Mazkur ishda tilshunos o'z ishida diniy-mifologik markerlangan til birliklari tushunchasini kiritib, kontseptlarini aniklaydi va tasniflash mezonlarini ishlab chiqadi, dunyoning diniy tasvirining lisoniy voqelanishi hususiyatlarini leksik, frazeologik, paremiologik birliklar, ularning nutqda qullanishiga aloqador lingvistik (a) “original tildan o'zlashtirish; b) sarqal kitoblar va adabiyotlar tarjimai; diniy-mifologik markerlangan til birliklarining ekvivalentligi va ekvivalentsizligi; har bir tilning diniy markerlangan frazeologik birliklar semantik strukturasiidagi farq; d) u yoki bu diniy-mifologik obraz va syujetlarning turli tillarda ta'kidlanishi”) va ekstralingvistik omillar



(e) “o‘rganilayotgan til mamlakati hududida u yoki bu tilning yetakchiligi; f) diniy, ibodat tillarning muqaddaslashuvi; g) turli mamlakatlar hududida sarqal kitoblar tarjimasining paydo bo‘lish davri; h) turli xalqlarning konfessional mansubligi; i) milliy dunyokarash va an‘analarning o‘ziga hosligi; j) o‘rganilayotgan til mamlakatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi”) va badiiy matnlar orqali aniqlab izohlaydi, shuningdek, ularning verballashuvini tahlil qiladi [5].

Madaniyatning iqtisod, siyosat, hukukshunoslik, ma‘naviyat, san‘at, falsafa va fan kabi ko‘plab boshqa universal sohalari kabi din ham inson va jamiyatning barcha qatlamlari va darajalarini qamrab oladi. Shu boisdan ijtimoiy jarayonlarni hisobga olib islomiy-diniy leksikani o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, insoniyat tamaddunining asosiy shakli sifatida din deyarli insoniyatning o‘zi bilan birga baravar rivojlanib kelmoqda. Ijtimoiy omil sifatida din jamiyatning “nafaqat iqtisodiy-siyosiy, ilmiy hayoti, falsafasi va san‘atiga, balki psixologiyasida ham insonning ahlokiy jihatlari va mafkurasida ham sezdirmasdan, ammo muntazam ravishda o‘z aksini topib, ruhiyatining o‘zgarishida” namoyon bo‘lib boraveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Umarxo‘jayev M.E. “Diniy atamalar va iboralar. izohli lug‘ati”.-T.: “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016 y.
2. Ulukov N.M. “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi”.-T.: Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. 1997 y.
3. Amonturdiyeva Sh.R. “O‘zbek diniy matnining funktsional-stilistik tadqiqi”.-S.: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan doktorlik dissertatsiyasi. 2020 y.
4. Sultonova Sh.M. “Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy hususiyatlari”.-F.: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan doktorlik dissertatsiyasi. 2019 y.
5. Galiyeva M.R. “Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi”.-F.: Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2019 y.
6. Maxmaraimova Sh. “O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha kontseptual lug‘ati”.-T.: “Cho‘lpon nashriyoti”. 2018 y.

